**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUSTA'LIMVAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**«KOSTYUM DIZAYNI» KAFEDRASI**

**Nurmuxamedova Dilorom**

# “Pret-a-porte” yo’nalishida ayollar liboslar toplami dizayn loyihasini ishlab chiqish

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

Rahbar: dots. Yunusxodjayeva X.M.

«____»___________2016 y.

**TOSHKENT 2016**

**Mundarija:**

**Kirish......................................................................................................3**
**1. Loyiha oldi qismi.......................................................................................6**
1.1. Kolleksiya konsepsiyasini ishlab chiqish......................................................6
1.2. Ayollar liboslari bo'yicha istiqbolli moda yo'nalishi tavsifi.........................8
1.3. Marketing tadqiqotlar. ......................................... ...............................10
1.4. Ayollar liboslar to'plamiga qo'yiladigan talablar. .....................................14
1.5. Ijodiy manbaani tanlash, asoslash va uslublash. ........................................16
**2. Loyiha qismi.............................................................................................18**
2.1. Eskiz loyihalash..........................................................................................18
2.1.1. Kolleksiyani kompozitsion yechimi va koloristik qatorini tanlash. ...........18
2.1.2. Yakunlovchi eskizlarni yaratish va modellarni texnik tavsifini ishlab chiqish......................................... ......................................... ..................27
2.1.3. Texnik eskizlarni yaratish…………………………………………...37
2.2. Kolleksiyani loyihalash usulini tanlash va asoslash.....................................42
2.3. Konstruktor - texnologik qism. ......................................... ......................43
2.3.1. Kolleksiya uchun materiallar paketini konfeksiyalash. .............................43
2.3.2. Konstruksiyalash usulini tanlash va asoslash. .........................................47
2.3.3. Buyum asosiy detallar chizmalarini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar..49
2.3.4. AK va MK hisobi va qurish......................................... .......................51
2.3.5. AK va MK konstruktiv - dekorativ modellashtirish.................................56
2.3.6. Ishchi hujjatlarni ishlab chiqish. ......................................... ................57
2.3.6.1. Yangi modellar andozalarini tayyorlash tamoyillari tavsifi...................57
2.3.6.2. Andozalar joylashmasi......................................... ..........................64
2.3.7 Texnologik ishlov berish xususiyatlari.....................................................65
2.4. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish...............................................66
2.4.1. Nom tanlash (Brand-name)......................................... .......................66
2.4.2. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish. ..........................................67

**3. Mehnat muhofazasi va ekalogiya qismi............................................. .........68**
**Xulosa......................................... ...............................................................71**
**Adabiyotlar ro'yxati......................................... ...........................................72**
**Ilovalar**

# Kirish

To'qimachilik va yengil sanoati sarmoyalarni sarflash uchun uchinchi yo'nalishdir. O'zbekiston - jahonda ko'p paxta yetishtiradigan davlatlardan biridir. Bundan tashqari, ipak, sun'iy tola, jun kalava ishlab chiqaramiz. Biz to'qimachilik va yengil sanoat tarmog'ini har tomonlama yangilash loyihasini tayyorlashga doir barcha ishlarni qo'llab quvvatlaymiz.

Kiyim insoniyat moddiy madaniyatining ko’zgusidir. Mustaqillikka erishilgandan so'ng, yurtboshimiz tomonidan to'qimachilik va yengi sanoat yo'nalishlariga ham alohida e'tibor qaratildi. Keyingi yillarda O’zbekistonda yirik tikuvchilik sanoati barpo qilishga va uni rivojlantirishga e`tibor berildi. O’zbekiston yirik tikuvchilik sanoati bor respublikagaaylandi. Shu yillar mobaynida hamma tikuvchilik korxonalarida majburiy ravishda kiyim tikishning sifatli texnologik qurilmasi ishlab chiqildi. O’zbekistonda tikuvchilik sanoati ishlab turgan korxonalarni yangi texnika bilan qayta ta’minlanishi hisobiga rivojlandi.

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: "Avvalo, biz, yangi aholi talabiga mos mahsulot ishlab chiqaradigan sex, korxonlar qurib ish o'rinlari tashkil etishimiz, imkoni boricha barchani ish bilan ta'minlab, vatanimiz ravnaqiga o'z hissamizni qo'shimiz kerak"[1].

Biz mamlakatimizni isloh etish va yangilash borasidagi ishlarimizni davom ettirish va yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, xalqimizning hayot darajasi va sifatini izchil yuksaltirib borish bo‘yicha 2016-yilda va undan keyingi yillarda o‘z oldimizga yuksak, ayni vaqtda aniq maqsad va vazifalarni qo‘ymoqdamiz.

Respublikamiz taraqqiyotida hozirgi kunda har qaysi soxa oldida murakkab mislsiz yangi vazifalar qoyildi.

Yengil sanoat soxasida o`zgarishlar korxonalarni qayta qurish va yangi uskunalar bilan taminlash ishlab chiqarishning zamonaviy uskunalari bilan taminlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Barchamiz yaxshi

anglab olishimiz zarurki, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib, tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini ta’minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o‘rinlarini tashkil etish, pirovard natijada o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak maqsadlarimizga erishish haqida so‘z yuritish mumkin emas. Ma’lumki, O‘zbekiston jahon bozorida xomashyo resurslarining, masalan, paxta va boshqa turdagi xomashyolarning narxi keskin tushib ketgan holatlarni ko‘p marotaba boshidan kechirgan. Shu bilan birga, to‘qimachilik va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarida ana shu paxta xomashyosini yanada chuqur qayta ishlashni ta’minlash, bo‘yalgan ip-kalava, trikotaj polotnosi va matolar kabi tayyor mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilish, keyinchalik, zamonaviy texnologiya va dizaynni faol o‘zlashtirish asosida, tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ulkan samaraga erisha olamiz. [2]

O'zbekistonda dizayn mustaqillikdan so'ng davlat miqyosida tan olindi. 1998-yili O'zbekiston Badiiy Akademiyasining va uning qoshida Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy Rassomlik va Dizayn institutining tashkil topishi Respublikamizda dizaynning tez su'ratlar bilan rivojlanishiga yo'l ochdi.

Shuningdek Respublikamizning bir necha qator kolledj va litseylarida ham talabalarga "dizayn" sohasi maxsus fan sifatida o'quv dasturiga kiritilgan.

Mamlakatimiz dizaynerlari liboslarida milliylik nafasi urib turadi. Zamonaviy badiiy jarayonda libos modasiga bo'lgan e'tibor unga nisbatan tobora oshib bormoqda. O'zbekistonda, ayniqsa poytaxtimiz Toshkentda modalar ko'rgazmalari bo'lib o’tmoqda. Ushbu modalar festivali va ko'rgazmalarning asosiy g'oyasi yosh iqtidorli dizaynerlar va zamonaviy modada kechyotgan voqealar bilan ommani tanishtirishdir.

Mavzuning dolzarbligi.Biz moda industriyasi rivojlangan davrda yashamoqdamiz.Hozirgi kunda milliy ornamentlardan foydalanilgan holda ishlab chiqarilgan ayollar liboslari butun dunyo ayollari tomonidan iliq kutib olinmoqda.Ayniqsa bunday milliy ornamentlar ustki kiyimlarda qollanilgan

bolsa.Buyumlarni ishlab chiqishning asosiy maqsadi, aholining moddiy va ma'naviy talablarini qondirish va buyumlarning ijtimoiy maqbulligidadir.

Bizning jamiyat oldidagi ma'suliyatimiz faqat sifatigagina emas, balki insonni madaniy saviyasini ham ko'tarishga e'tibor qaratishimiz kerak. Biz dunyo modasiga o'z milliy mentalitetimiz va shu bilan birga o'zimiz kashf etgan yangidan yangi kreativ fikrlar va bichimlarni taklif etishimiz lozim. Xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy, texnik va madaniy aloqalarimizni tiklash va rivojlantirishimiz uchun barcha imkoniyatlar yetarli.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Pret-a-porte uslubidagi ayollar liboslarini yaratish

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- Kolleksiya konseptsiyasini ishlab shiqish;
- Pret-a-porte uslubidagi ayollar liboslari uchun istiqbolli moda yo'nalishini tahlil etish;
- Marketing tadqiqotlarini olib borish;
- Berilgan kiyim assortimenti bo'yicha liboslar to'plamiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish;
- Ijodiy manbani tanlash va asoslash;

# 1. Loyiha qismi

## 1.1. Kolleksiyakonsepsiyasiniishlabchiqish

Konseptuallik - bu loyiha madaniyatining mohiyatini asoslaydigan umumiy ijodiy ko'rsatmadir. Ijodiy konsepsiya loyihaning qiymati va ma'naviy mazmunini belgilaydi. Ijodiy konsepsiyaning mazmuni va xarakteri nafaqat muallifni shaxsiy dunyoqarashi bilan balki loyiha madaniyati va jamiyatini rivojlanish asosiy raqobatlari bilan bog'liq . Dizayn insonlarning ehtiyojini hisobga olishi zarur va ular muamolarini yechishda o'z hissasini kiritish lozim .

Dizaynda konsepsiya – asosiy g'oya, maqsadlarni, vazifalarni va vositalarni ma'naviy yo'nalishidir.

Dizaynerlarning muallif ijodiy konsepsiyalari, odatda, loyiha madaniyatni rivojlanish umumiy tendensiyalaridan xoli emas va dizaynda mavjud u yoki bu umumiy konsepsiyalarga qayd qilmaydi.

Bitiruv malaka ishida konsepsiya sifatida "Pret-A-Porte" uslubi(1-rasm) tanlab olindi.

"Pret-a-porte" uslubidagi ayollar liboslari dizayn loyihasini ishlab chiqish jarayonida qulayligini, zamonaviy bo'lishi, ranglar uyg'unligini hisobga olgan holda liboslar to'plami tasavvur qilinib uni amalda qo'llash maqsad qilib olindi.

"Pret-a-porte" (so'zi fransuzchadan olingan bo'lib, ingliz tilidagi tarjimasi "kiyishga tayyor") – tayyor kiyim, modelyerlar tomonidan ommaviy ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan kiyim."Pret-a-porte" kolleksiyalari moda uylarining asosiy daromad manbai sifatida xizmat qiladi.Chunki hamma modellar standart razmerda dokonlarda sotish uchun tikiladi.Ushbu atama XX asrning 50 yillarida yuzaga keldi. Gazlama va bichimlarni hisobga olgan holda "Pret-a-porte" bir necha toifalarga bo'linadi. "Pret-a-porte de lyuks" toifasiga namoyishlar uchun mo'ljallangan qimmatbaho gazlamalardan tikilgan modellar kiradi.Bunday modellar yuqori moda tendensiyalarini o'zida aks ettirib, kundalik kiyish uchun yaratilmagan."Pret-a-porte" ning ikkinchi toifasiga arzon hamda kundalik kiyish uchun mo'ljallangan kiyimlar kiradi."Pret-a-porte" modelyer-dizaynerlar tomonidan taqdim etilgan eskizlar asosida fabrikalarda tikiladi.



1-rasm Pret-a-porte uslubi

## 1.2 Pret-a-porte uslubidagi ayollar liboslari bo'yicha istiqbolli moda yo'nalishi tavsifi

Ayollar uchun libos loyihalaganda, faqat podium emas kundalik hayotta ham dolzarblikni nazarda tutadi.Dabdabali gullar Parijda bo'lib o'tgan Moda haftaligida e'tiborga sazovor bo'ldi. Yorqin va ekzotikaga boy o'simliklar Chanel, Eliesaab, Viktor&Rolf, Giambattista Valli, Yanina, Couturening liboslar to'plamida kuzatish mumkin. Qizil atirgullardan qilingan pret-a-porter uslubidagi kiyimlar eng mashhur brend Dolce&Gabbanada ham bor (1- rasm). Yorqin gulli printlar ,naqshlar va bezaklarga Oscar de la Renta, Blumarine ,Celine, Comme des Garcons Simone Rocha, Micheal Korsda ham uchraydi.

Yozgi liboslarni oq rangsiz tasavvur etish qiyin.Bu ranglardan o'zining liboslar to'plamida foydalangan dizaynerlar Dior, CarolinaHerrera, Hermes, LouisVuitton, Blumarine, Versace, Karl Lagerfeld "tepasi oq,pasti qora" usulidanfoydalandi.

Dekolte o'rniga bu mavsumda dizaynerlar yelkani butkul ochiq qilishni ma'qul ko'rishdi.BalenciagavaHugoBossoddiyoqshomliboslariyaratishdivabezaklarniminimalishlatishdi. GeorgeoHobeikaaksinchako'ylaklarinigullarbilanbezadi.(2-rasm).

Yelkaqirqimlaridagiyorqino'zgarishi.Kostyumdagitaxlamalar,choklar,printlaryordamchibo'linmabo'lib,siluetningharxilshakliniyaratadi.Misoluchun,kiyimningo'zidakonstruktivbo'linmalarboshidabo'lmasa ham belchizig'iningko'tarilibtushishida ko'rish mumkin.

Sariqtilla, yorqin,quyoshli, kanareykarangliyokioqish,nafisranglar – bumavsumdadizaynerlaraynanshuranglardan unumlifoydalanishdi.Buni Celine vaChloeningliboslarto'lamidagiyozgiko'ylaklaridako'rishimizmumkin.



2-rasm Georgio Hobeika to’plami

## 1.3 Marketing tadqiqotlar (o'xshash modellar tahlili)

Marketing tadqiqotlari deganda marketing faoliyatining turli jihatlari bo'yicha ma'lumotlarni sistemali yig'ish , tartibga solish va tahlil qilish tushuniladi. Marketing tadqiqotlari marketologlarni axborotlar orqali bozor, is'temolchilar, raqobatchilar va marketing tashqi muhitning boshqa elementlari bilan bog'lovchi funksiya hisoblanadi. Ayniqsa, bozor munosabatlari tobora chuqurlashib borayotgan bugungi kunda har bir korxona uchun marketing tadqiqotlari o'kazishning ahamiyati beqiyosdir, chunki marketing tadqiqotlariga asoslanib, korxonalar mahsulotlariga bo'lgan talabni va bu mahsulotlarning raqobatdoshligini qanday ekanligi haqida ma'lumotlar oladilar.

Markering tadqiqotlari korxona faoliyati haqidagi noaniqliklari kamaytirishga yordam berib, korxonaning samarali faoliyati haqidagi noaniqliklarni kamaytirishga yordam berib, korxonaning samarali faoliyatini ta'minlaydi.

2015-yildagi bozorni tahlil qilganda shu ma'lum bo'ldiki, bu yil oddiylikka qiziqish qaytdi. Kundalik kiyimdan tortib bashang kiyimlargacha iste'molchi ochiq, yengil ranglarga talab bildirishmoqda. Ayniqisa bashang liboslarda odiylik, hech qanday bashang toshlaru, marvaridlarsiz koktelniy liboslarga talab ko'payibdi. Bularni barchasidan ko'rinib turibdiki odamlar yana odiylikka, nafis go'zallikka intilishmoda.

O'zbekiston xalqini yuqori sifatli, turli asortimentdagi kiyimlar bilan ta'minlash uchun yakka buyurtmalar modaga mos va yuksak didli kiyimlarga buyurtma qabul qilib tikadigan korxonalar mavjud.(*3-4rasm*)



3-rasm



4-rasm



5-rasm



6-rasm

## 1.4 Ayollar liboslari to'plamiga qo'yiladigan talablar

Iste'molchi tomonidan pret-a-porte uslubidagi liboslariga qo'yilgan talablar.

Loyihalanayotgan buyumga qo'yiladigan talablar:

Kiyimni sifatinibaholash uchun iste'molga oid sifat ko'rsatkichlari va texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarga bo'linadi.

Iste'molga oid ko'rsatkichlar deb, insonning buyumni iste'mol qilish jarayonidagi muayyan talablarni qondirishga qaratilgan buyum xossalari tushuniladi. Iste'molga oid ko'rsatkichlarga ijtimoiy, funksional, estetik, ergonomik, eksplutatsion ko'rsatkichlar kiradi.

1. Estetik talab jumlasiga model konstruksiyasining badiiy butunligi, mukammaligi va zamonaviy moda talabiga javob berishi hamda haridorligi kiradi. Estetik xususiyatga ega bo'magan kiyim foydasiz buyumga aylanadi, chunki u o'z maqsadi funksiyasini – insonning estetik talabini qondiradigan o'ziga xos xususiyatini bajara olmaydi.
2. Ergonomik talab jumlasiga buyumni ekspatasiya qilish davrida inson uchun qulay sharoit yaratuvchi, uni toliqtirmaydigan sharoit tug'diruvchi faktorlar kiradi.
3. Eksplutatsion talabbuyumni foydalanishga yaroqli holini uzoq muddat davomida saqlay olish qobiliyati. Bunda model o'z shaklini saqlovchanligi, materialning mustahkamligi, biriktiruvchi choklarning uzilishiga chidamliligi kabi talablarga javob berishi kerak.
4. Funksional talab da model aniq bir vazifaga mo'ljallangan, iste'molchining antropometrik o'lchamlari guruhiga mos bo'lishi kerak. Ayni buyumning vazifasi modelga, uning konstruksiyasiga va materiallariga qo'yiladigan talablarni shakllantira oladi.
5. Ijtimoiy talabbuyumning ishlab chiqish va sotishga muvofiqligini bildiradigan ommaviy ehtiyojlarga mosligini harakterlaydi. Mahsulot sifatini ta'minlashda ijtimoiy omillar roli ilmiy – texnik taraqqiyot va moddiy farovonlik o'sgan sari oshaveradi.

Texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlarkonstruksiyaning texnik jihatdan mukammallik darajisini, ishlab chiqarishga iste'molchi harajatlarini hisobga olgan holda kiyimni loyihalash va texnologik usullarini bildiraradi. Texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlarda standartlash va unifikatsiyalash, konstruksiyasining ishlov berishga qulaylik darajisini va tejamlilik ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Ayollar libosini yaratayotganda uning texlogik jihatdan ishlov berishga qulayligi hamda choklarning pishiqligini taminlovchi va qayta ishlov berishga qulaylik yaratishda eksplutatsion ko'rsatkichlarni ham hisobga olish zarur.

Konstruksiyaning standartlashtirish va unifikatsiyalashtirishga model seriyasining ishlov berishga qulaylik jihatdan yaqinliligi, model seriyasining konstruktiv jihatdan yaqinliligi ko'rsatkichlar kiradi.

Konstruksiyaning ishlov berishga qulayligiga ekspluatatsiya jihatidan ishlov berishga qulayligi, ishlab chiqarish jarayonida ishlov berishga qulayligi ko'rsatkichlari kiradi.

Tejamkorlik ko'rsatkichlariga bir dona maxsulotga sarf xarajatlar darajasi hamda buyum eksplutatsiyasiga sarf harajatlar kiradi. Loyihalanayotgan buyumning tejamkorlik talablarga javob berishini taminlash maqsadida ko'p mayda detallarga ega bo'lgani model loyihalanganligi qo'l keladi. Chunki avra gazlamasidan chiqadigan chiqitlar kamroq bo'lib, andozalarni to'shamaga joylashtirish qulaylik tug'diradi.

## 1.5 Ijodiy manbaani tanlash, asoslash va uslublash

Dizayner kostyum kolleksiyasini yaratishda ijodiy manbaa sifatida har qanday tabiiy hodisalar, buyum muhitining turli elementlari, dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, musiqa, rangtasvir, adabiyot, balet , teatr, sirk, kino, tomosha tadbirlari, etnikmavzular, me'morchilik, muhandislikinshoatlari, mashina detallari, turli mexanizmlar, maishiy buyumlar, amaliy san'at asarlari (shisha, tosh, yog'och, metall, keramika va b.), musiqa asboblari, yer fakturasi, yulduzli osmon, origami o'yini, ekologiya, tarixiy, xalq va klassikkostyumlar, eklektika usuli, parodiya usuli, stilizatsiyalash usuli va h.k. dan foydalanish mumkin.

Har bir dizayner o'z faoliyatining muayyan bosqichida tarixiy va xalq an'analari bilan ilhomlanib, ijodiy manbaalarga murojat qiladi.

Ijodiy jarayon - shakl va mazmun birligini jamlash uchun muhum. Ba'zan yangi va qiziqarli ijodiy manbaa topish muammoga aylanadi. Bu an'anaviy dizayn usullari yordamida hal qilinadi. Shuning uchun loyiha dizayner ijodiy fikrlashiga va dizayn jarayonining kuchaytirishi, rivojlantirishga qaratilgan.

Butun dunyo bo'ylab dizaynerlar dizaynning har bir sohasida yangi g'oyalar qidiryaptilar (sanoat mahsulotlari, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari yoki qadoqlash dizayn bo'lsin), birinchidan, yangi mahsulotlar yaratish, ikkinchidan zamonga mos bolish uchun. Tovarlarni ishlab chiqaruvchi firmalarga qiziqarli g'oyalar muhum va yangi original g'oyalar cheksiz emas. Bu qidiruv usullarida rassom-dizaynerlari yordam beradi.

Bu tartibga solish va ijod jarayonini faollashtirishga imkoniyati beradi.

Usul uyushmasi - g'oyalarni shakllantirish usullaridan biri. Agar dizayner ijodiy xayoli, turli g'oyalar mukammal bo'lsa buyuk ta'sir berishi mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy dizayn ijodiy fikrlash loyihalashning mutlaqo yangi yo'li hisoblanadi.

Dizayni birlashtiruvchi manbaa, bunga dizayner fikrining rivojlanishi, grafik turlari va psixologik birlashmalari kerak. Ijodiy jarayonda assotsiativ fikrlash juda muhim ahamiyatga ega.

San'at har qanday ish kabi fikrlash uchun ijrochining (dizayner) qobiliyati, ijod asosidir. Dezayner kiyimni kiyim aylantirishi uchun hohlagan narsani ijodiy manba qilib olishi mumkin. aylantirish mumkin deyarli hech narsa olishi mumkin.

Libos dizaynida ijodiy manba har qanday tabiiy hodisalar, ijtimoiy voqealar, bizni o'rab turgan ob'ektlar bo'lishi mumkin. Dizayner kiyim yaratganda ularga hajmlar, inshootlar turlari bilan bog'lagandan, har qanday shakllardan ham manfaatdordir.

Konsepsiyaga asoslanib, tanlangan mavzudan yiroqlashmagan holda, ijodiy manbaga "qo'ng'iroq gul" (5-rasm) olindi. Ayollar assortimenti uchun eskizlar ishlab chiqildi. Ijodiiy manbada ranglar bosiqligi, qongiroq gulining shakliga, uning nafis gul barglari fatin matosining harirligini takrorlanishiga tayanildi.



5-rasm Qo'ng'iroq gul

## Loyiha qismi

## 2.1. Eskiz loyihalash

### 2.1.1. Kolleksiyani kompazitsion yechimi va koloristik qatorni tanlash

Rang buyumning eng muhim informatsion sifatlaridan biri hisoblanadi. Bizni o’rab olgan tashqi muhit – rangli olam tabiatda rangsiz mavjudot, o’simlik, buyum yo’q. Odam yaratgan asarlari orasida ham rangsiz buyumlar yo’q.

Rang orqali biz mahsulot haqidagi ma’lumotga ega bo’lamiz. Uning rangi og’ir va yengilligiga qarab model yoki buyum haqidagi tasavvurga ega bo’lamiz. To’q ranglarni og’ir, och ranglarni esa yengil tasavvur etamiz. Rangni fizik xossalarining ta’siri ko’rimlilik va salobatlilik taasurotini beradi. Ko’pgina tadqiqot o’tkazgan olimlarning asarlarida rang – bu qandaydir kuch deb atalganligi, odamning ruhiga salbiy yoki ijobiy ta’sir etishi mumkin. Ranglar odamlarning turli his-tuyg’ularini uyg’otadi.

Qora rang – oq rangning qarama-qarshi belgisi bu qora, u qamma rang bilan uyg`unlashadi.(6-rasm)

Yashil rang – bu yozning rangi, bunda ham tabiat dam oladi.(7-rasm)

Sariq rang – quvnochlik, hayotdan hursandlik, chaqqonlik. Tajribani ko'rsatishga sariq rang iliq yoqimtoy tassurot qoldiradi.(8-rasm)

Havo rang – odam pulsini sekinlashtirib, qon bosimini tushiradi, nafas olishni yaxshilaydi.

Ko'k rang – qimmatbaho sapfir toshning rangi, hind astronomiyasida ko'k rangni Saturn sayyorasining rangi bilan solishtiriladi.(9-rasm)

Qizil rang – bu rang diniy ramzlar ichida Olloh Taoloning qudrati ramzidir. Baxt va Quvonch tantana rangidir.(10-rasm)



(6-rasm)




(7-rasm)




(8-rasm)



(9-rasm)




(10-rasm)

“Pret-a-Porte’’ uslubidagi ayollar liboslarto'plamini yaratishda bosiq ranglardan, ya`ni aynan postel ranglaridan foydalanildi.

Kolleksiyani ijodiy manbasi qo’ng’iroq gul bo`lganligi sababli ham pastel ranglar koloristik qatori ko’rib chiqildi (11-12rasmlar).




11-rasm



12-rasm




15-rasm taqilmalar



Описание: C:\Users\User\Desktop\for eskiz2.jpg



Описание: C:\Users\User\Desktop\for eskiz4.jpg







| O'zg | List | XujjatNo | Imzo | Sana | Eskiz №1 | List |
|---|---|---|---|---|---|---|

## Taklif model-1

Bahor -kuz mavsumiga mo'ljallangan o'tkazma yeng bichimidagi sidirg'a atlas matoli o'rta yoshli ayollar jaketi.

Jaket nim yopishgan siluetli, uzunligi tizza chizig'idan baland, taqilmasi markaziy molniya tasma tikilgan.

Jaket old bo'lagi bo'yin o'mizi aylana qirqimda model eskiziga binoan. Jaketda bel vitochka ishlatilgan, vitochka teng yarmigacha tikilib model eskizga binoan taxlama hosil qilingan.

Jaket ort bo'lagi o'rta chokli. Bo'yin o'mizi aylana shaklda. Jaketda ort bo'lagida bel vitochka ishlatilgan, vitochka teng yarmigacha tikilib model eskizga binoan taxlama hosil qilingan.

Jaket o'tkazma, yengli, bir chokli. Yeng uzunligi kalta.

Jaket astari – etakkacha.



| O'zg | List | XujjatNo | Imzo | Sana | Eskiz№2 | List |
|---|---|---|---|---|---|---|

## Taklif model- 2

Bahor kuz  mavsumiga mo'ljallangan o'tkazma yeng bichimidagi sidirg'a atlas matoli  o'rta yoshli ayollar jaketi.

Jaket  keng trapetsiya siluetli, uzunligi bo'ksagacha, taqilmasi markaziy ichki 1dona ilgakdan foydalanilgan

Jaket ort bo'lagi o'rta chokli.

Jaket o'tkazma, yengli, bir chokli.Yeng uzunligi jaket uzunligi bilan teng.

Jaket yoqas iaylana shaklda.Model eskiziga binoan.

Jaket astari – etakkacha.





| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Eskiz№3 | List |
| | | | | | | |
| O'zg | List | XujjatNo | Imzo | Sana | | |

## Taklif model -3

Bahor kuz mavsumiga mo'ljallangan o'tkazma yeng bichimidagi sidirg'a atlas matoli o'rta yoshli ayollar jaketi.

Jaket nim yopishgan siluetli, uzunligi bo'ksa chizig'idan 5 sm baland, taqilmasi markaziy ichki 1dona ilgakdan foydalanilgan.

Jaket old bo'lagi bo'yin o'mizi gilli qirqimda model eskiziga binoan. Jaketda bel vitochka ishlatilgan, vitochka teng yarmigacha tikilib model eskizga binoan taxlama hosil qilingan.

Jaket ort bo'lagi o'rta chokli. Bo'yin o'mizi aylana shaklda. Jaketda ort bo'lagida bel vitochka ishlatilgan, vitochka teng yarmigacha tikilib model eskizga binoan taxlama hosil qilingan.

Jaket o'tkazma, yengli, bir chokli. Yeng uzunligi jaket uzunligi bilan teng. Jaket astari – etakkacha.





| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| O'zg | List | XujjatNo | Imzo | Sana | Eskiz №4 | List |

## Taklif model-4

Bahor -kuz mavsumiga mo’ljallangan o’rta yoshli ayollar jaketi.Jaket sidirg’a atlas matosidan tikilgan.

Jaket nim yopishgan siluetli,
Jaket old bo’lagi bo’yin o’mizi model eskizi bo’yicha modellashtirilgan . Jaketda bel vitochka ishlatilgan, vitochka teng yarmigacha tikilib model eskizga binoan taxlama hosil qilingan.

Jaket ort bo’lagi o’rta chokli. Jaket ort bo’lagida bel vitochka ishlatilgan, vitochka teng yarmigacha tikilib model eskizga binoan taxlama hosil qilingan.

Jaket o’tkazma yengli, bir chokli. Yeng uzunligi model eskiziga binoan.
Jaket uzunligi bo’ksa chizig’idan 10 sm pastda .

Jaket astari –etakkacha.



| O'zg | List | XujjatNo | Imzo | Sana | Eskiz No5 | List |
| --- | --- | --- | --- | --- | --- | --- |

## Taklif model-5

Bahor -kuz mavsumiga mo'ljallangan o'rta yoshli ayollar jaketi. Jaket sidirg'a atlas matosidan tikilgan.

Jaket nim yopishgan siluetli,
Jaket old bo'lagi bo'yin o'mizi model eskizi bo'yicha modellashtirilgan . Jaketda bel vitochka ishlatilgan, vitochka teng yarmigacha tikilib model eskizga binoan taxlama hosil qilingan.

Jaket ort bo'lagi o'rta chokli. Jaket ort bo'lagida bel vitochka ishlatilgan, vitochka teng yarmigacha tikilib model eskizga binoan taxlama hosil qilingan.

Jaket yaxlit bichimli bo'lib, uzunligi model eskiziga binoan.
Jaket uzunligi model eskizi bo'yicha.

Jaket astari – etakkacha.

## 2.1.3. Texnik eskizlarni yaratish




A A



B B




B B
D D
B B
D D


B B
D D
B B
D D


D
D
B B
B B
D D


D
D
B B
B B
D D

## 2.2. Kolleksiyani loyihalash usulini tanlash va asoslash

Kostyum loyihalash-bu tadqiqot etib, eskizlar, maketlar va modellarni yaratish, buyumlarni chizmasini va hisobini ishlash, tajriba uchun namunalarni ishlash, tajriba uchun namunalarni ishlash, belgilangan hususiyatlarga ega yangi kiyim namunasini yaratish jarayondir.

Loyiha vazifalarni eng optimal variantini qidirish jarayonida muhandis – hisobchi usuli tanlandi.Muhandis –hisobchi usulida bir qator metodikalar ichidan Ingliz metodikasi tanlandi.Ushbu metodika tanlanganinig sababi shundaki ushbu metodikada o`lcham bo`yicha madellashtirilayotgan kiyim qomat bo`ylab moslashishi juda yaxshi bo`lganidadir.

Konstruktiv nuqtalarning belgilanish sistemasi va noldan boshlab o`sib boruvchi raqamlarning ishlatilishi asosiga binoan andazani qurush sxemasining moxiyati bo`yicha har bir nuqtaning joylashish ketma-ketligini aniqlash mumkin. Konstruktorlik modellashtirishning barcha usullari rasmlarga olingan bo`lib modellarning texnik rasmlari va konstruktorlik o`lchamlar asosida bajarilgan andazalar sxemasi ko`rsatib o`tilgan.

Kolleksiyani loyihalashda muhandis-hisobi usuli tanalanadi va asoslanadi. Muhandis-hisobida o'lcham, qo'shimcha hamda chizmaga ahamiyat berildi.

## 2.3 Konstruktor texnologik qism

### 2.3.1.Pret-a-porte yo'nalishida ayollar liboslari uchun materiallar paketini konfeksiyalash

O'zbekistonning geografik joylashishi va iqlimi. Yoz kunlari odam organizmiga yuqori harorat ta'sir etadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyo Respublikalarida ushbu muammo jiddiy ahamiyatga ega. Keng miqyosda o'tkazilgan ilmiy izlanishlar Markaziy Osiyo hududiga taalluqli iqlimiy, gidrologik va ekologik muammolarga bag'ishlangan. Hozirgi vaqtga qadar mazkur territoriyaga oid iqlimiy rayonlashtirishning variantlari ishlangan bioiqlimiy kartalar komplekti tuzilgan, turli iqlimiy va bioiqlimiy ta'riflar, atlas va ma'lumotnomalar mavjud. Regionga hos atmosfera jarayonlarining hususiyatlarini o'rganish maqsadida tadqiqotlar o'tkazilmoqda.

O'zbekistan Respublikasi Evroosiyo kontinentining markaziy qismida shimoliy kenglikning o'ttiz yettinchi – qirq beshinchi, graduslari va sharqiy uzunliklarning ellik oltinchi va etmish uchinchi graduslari orasida joylashgan; uning umumiy maydony 447,4 ming $km^2$ ga teng.

O'zbekiston Shimolda va G'arbda Qozog'iston bilan, Janubda Turkmaniston va Afg'oniston, Sharkda esa Tojikiston va Qirg'iziston bilan chegaradoshdir.

Respublika tengsiz ikki qismga bo'linadi: 78,8 foizi - tekisliklar, qolgan 21,2 foizi- tog'lar va tog'lararo cho'nqirlar.

Taklif modellarni yaratayotgan vaqtning o'zida dizayner modelyer uni qaysi matodan tikishni ko'z oldiga keltirib tasavvur qilib ko'radi.

Eskiz yaratayotgan vaqtda biz avvalam bor unga ketadigan matodan tashqari qanday furnitura mahsulotlari ketishini chamalab ko'rishimiz kerak.

O'lkamizda to'qiladigan ipak, paxta gazlamalarining turlari juda ko'p. Masalan, xon atlas, adras, beqasam, banoras, sidirg'a atlas, boz adras va h.k. Bularning bari matolarni bo'yash san'atining yuksakligi mahalliy gazlama to'qish

uslublari ular qo'lidan chiqadigan matolar rang - barangligi va naqsh ikatlarning bir - biriga o'xshamasligi, nafisligi bilan ajralib turadi.

